

**MUSIQA TA'LIMI, UNING RIVOJLANISH TARIXI VA BUGUNGI
KUNDAGI TALABLAR**

Axmedova Farangiz Alisher qizi
Turkiston Yangi Innovatsiyalar
Universiteti musiqiy ta'lim
1-bosqich magistranti
+998 93 476 77 79

Annotatsiya. Maqolada musiqa ta'limi, uning rivojlanish bosqichlari, bugungi kunda musiqa ta'limining turlari, yo'nalishlari, insonning musiqa faoliyati bosqichlari, musiqaning asosiy badiiy vositalari, musiqa ijodiyoti, ijrochiligi va tinglanishi musiqa faoliyatining musiqa tarbiyasi, musiqa ta'limi kabi turlari, musiqiy tanqid bilan birga jamiyat musiqa madaniyati tizimini tashkil etish, o'zbek musiqa merosida to'rt asosiy mahalliy uslub, musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan kuylash, musiqa tinglash, musiqa savodi, musiqa tahlili va adabiyoti elementlari, musiqa darsi o'quvchilar tomonidan bajariladigan turli musiqiy faoliyatlar, o'quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish masalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: musiqa, ijod, ijro, tinglash, nafosat, ijodkorlik, dunyoqarash, mustaqillik, tashabbuskorlik, tayanch o'quv reja, kompetensiya, musiqiy savodxonlik, tasavvur, bilim, malaka, ko'nikma, san'at, hayotga hissiy munosabat, musiqiy-estetik did, tanqidiy saralash.

Аннотация. В статье рассматривается музыкальное образование, этапы его развития, виды, направления музыкального образования на сегодняшний день, этапы музыкальной деятельности человека, основные художественные средства музыки, музыкальное творчество, исполнение и слушание такие виды музыкальной деятельности как музыкальное воспитание, музыкальное образование, организация системы музыкальной культуры общества наряду с музыкальной критикой, четыре основных местных стиля в узбекском музыкальном наследии, элементы пения, прослушивания музыки, музыкальной грамоты, музыкального анализа и литературы из различных образцов истории, теории и исполнения музыки, урок музыки рассказывает о различных

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

музыкальных занятиях, выполняемых учащимися, о вопросах формирования музыкальной культуры у учащихся.

Ключевые слова: музыка, творчество, перформанс, аудирование, изысканность, креативность, мировоззрение, самостоятельность, инициатива, базовый учебный план, компетентность, музыкальная грамотность, воображение, знания, умения, навыки, искусство, эмоциональное отношение к жизни, музыкально-эстетический вкус, критическая квалификация.

Annotation. The article covers music education, stages of its development, types, directions of music education today, stages of musical activity of a person, the main artistic means of music, musical creativity, performance and listening types of music activities such as music education, organization of a system of musical culture of society with musical criticism, singing from various samples of the four main local styles, music history, theory and, the music lesson talks about the various musical activities performed by students, the Masas for the formation of musical culture in students.

Keywords: music, creativity, performance, listening, elegance, creativity, worldview, Independence, Initiative, basic training plan, competence, musical literacy, imagination, knowledge, competence, skills, art, emotional attitude to life, musical-aesthetic taste, critical sorting.

Musiqa bu yunon tilidan olingan bo‘lib, “mousiche” “muzalar san’ati” - inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush ton, nag‘malar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanat turi. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv kabi turli kayfiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, Musiqa shaxsning kat’iyatlik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik kabi irodaviy sifatlari bilan birga uning tabiatini ham o‘zida yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari — Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari - Forobiy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabi, tasavvuf arboblari Imom G‘azoliy, Kalobodiy Buxoriylar tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan jarayon - muayyan jarayonli tabiati bilan bog'liqdir. Musiqa asarlari mazmunida badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish munosabatlari jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqa mazmuni turli — epik, dramatik, lirik belgilarga bo'linadi.

Lirika musiqa tabiatiga ancha yaqin bo'lib, insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalaydi. Musiqa mazmuni - shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaktida inson faoliyatining ko'pgina jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari bilan mushtarakdir.

Musiqa asosiy vazifasi insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirishdan iborat.

Nutq, tovushli signal berish va tovushli-ma'noli jarayonlar singari, musiqa ham muayyan ma'lumotlarni sadolar vositasida ifodalash imkoniyatiga ega. Jumladan, tovushlarning baland-pastligi, ingichka-yo'g'onligi, uzun-qisqaligi, kuchliligi va vositalar yordamida odamning ichki holatini ifodalash imkoniyati jihatidan musiqa nutq intonatsiyalariga o'xshaydi. Ammo, san'at turi sifatida musiqa faqat ungagina xos bo'lgan xususiyatlar badiiy-estetik maqsadlarni ko'zlashi, mazmun va shakl badiiy qiymat sifatida kasb etilishi, ayniqsa, musiqa tovushlarining muayyan musika tizimlarida tashkil etilishi bilan nutidan farq qiladi. Dunyoning aksariyat xalqlari musiqa madaniyati, jumladan, o'zbek musiqa folklori, an'anaviy musiqa va bastakorlik ijodiyotida lad asosini turli ko'rinishdagi diatonika tashkil etadi.

Musiqada asosiy badiiy vosita — kuydir. Musiqa asosiy ogzaki an'anadagi uslublarida kuy badiiy obrazning yagona va tugal musiqiy ifodasi hisoblanadi. Musiqa asaridagi kuylar rivoji uning kompozitsiyasini tashkil etadi. Musiqa shakli asar mazmunining moddiy tajassumi va vujudga kelish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Musiqa asarlari shakliga muntazam takrorlanuvchi tarkib va unsurlar xos bo'lib, bular badiiy mazmundagi o'zgaruvchanlik, harakatchanlik kabi xususiyatlarga ma'lum darajada ziddir. O'zaro aloqa va birlik doirasidagi bunday dialektik ziddiyatlar musiqa asarini yaratish va ijro etish jarayonida hamisha xilma-xil ravishda o'z yechimini

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

topadi. Turli xalqlar musiqa madaniyati va an'analarida musiqaning barkaror va beqaror unsurlarining o'zaro munosabatlari ham o'zgachadir. An'anaviylik mezoniga asoslangan og'zaki yo'nalishdagi musiqa uslublarida muayyan badiiy mazmun, estetik qoidalar bilan birga musiqa asarlari shakliga asarning ijro etish vaqti, joyi, sharoiti o'z ta'sirini o'tkazadi. Individual badiiy obrazlarni ifodalashga qaratilgan yozma an'anadagi kompozitorlik san'ati asarlari esa ko'proq aynan musiqiy rivojlanish qoidalariga, ya'ni tugallangan, yaxlit va barqaror shakllarga asoslanadi. Shuning uchun, kompozitorlik musiqada mazkur shakllarni ifodalashga hamda obyektiv holatda saqlashda asosiy omil bo'lgan nota yozuvi muhim o'rin tutadi.

Musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa egadir. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashklari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun Musiqa asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi. Jumladan, alla, zikr, marsiya, sarbozcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Ashula, dastgoh, cholg'u kuy, maqom yo'llari, konsert, miniatyura, romansda estetik ta'sir o'tkazish vazifalari asosiy o'rin tutadi. Janrlar, o'z navbatida, diniy musiqa, yoshlar musiqasi, maishiy musiqa, ommaviy musiqa, harbiy musiqa, kamer musiqa, simfonik musiqa, xor musiqasi kabi musiqa turlariga birlashadi.

Tarixiy, milliy, mahalliy, shaxsiy musiqa uslublari ham musiqiy tafakkur tarzi, ohang, ritm, shakl kabi musiqiy unsurlarni o'ziga qamrab olib, muayyan bir davr yoki milliy madaniyatga mansub bo'lgan turli janrdagi asarlar umumiyatini aks ettiradi.

Insonning musiqa faoliyati asosan 3 bosqichda amalga oshiriladi:

1. Ijod
2. Ijro
3. Tinglash

Har bir bosqichda asarning mazmun va shakli uzgacha kurinishga ega bo'ladi. Ijod bosqichida badiiy g'oya va shakl muallif ongida mushtarak holda tug'iladi. Ijro jarayonida shakl va mazmun ijrochi tomonidan uning dunyokarashi, estetik tasavvurlari, shaxsiy tajriba va maxrratiga mos ravishda uzgartiriladi. Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni uzlarining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shunday qilib, musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega buladi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

Ular “ustoz-shogird” munosabatlari jarayonida uzlashtirgan yoki nota yozuvi yordamida o‘rgangan asarlarni jonli ravishda tinglovchilar oldida talqin etadilar. Musiqiy folklor tizimida musiqa namunalari omma ongining badiiy mahsuloti sifatida yuzaga kelib, havaskor qo‘shiqchi, sozanda yoki jamoaviy tarzda ijro etiladi. Musiqa ijrochiligi mussha cholg‘ulari hamda inson ovozk vositasida amalga oshiriladi. Bular yakka tarzda, ansambl, xor, orkestr kabi birikma shakllarida namoyon buladi.

Musiqa ijodiyoti, ijrochiligi va tinglanishi musiqa faoliyatining musiqa tarbiyasi, musiqa ta’limi kabi turlari, musiqiy tanqid bilan birga jamiyat musiqa madaniyat i tizimini tashkil etadi.

Buyuk Turon zaminida musiqa madaniyati va ijrochilik san’atining rivojlanishi qadim zamonlarga bog‘lanib ketadi. Buyuk sharq allomalari Muhammad Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Hayyom, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Pahlavon Muhammad, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug‘ bobokalonlarimiz o‘zlarining risolalarida ijrochilik san’ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg‘u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san’atkorlik qonun - qoidalariga oid qimmatli ma’lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar «Qobusnoma»da ham hofizlik va san’atkorlikning qoidalariga bag‘ishlangan alohida bob o‘rin olgan. O‘sha davrning buyuk olimi Maxmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘otiy turk» asarida qadimiy turkiy xalqlarning xalq og‘zaki ijodi va qo‘shiqdari, bayram va marosimlaridagi mehnat qo‘shiqdari, qahramonlik qo‘shiqdari haqida namunalar berilgan bo‘lib, o‘sha zamonda qo‘shiqchilik janri rivoj topganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda musiqa, asosan, xalq og‘zaki an‘anadagi professional musiqa sifatida qadimdan rivojlanib kelgan. O‘zbek musiqa merosida 4 asosiy mahalliy uslub mavjud. Jumladan,

1. Buxoro-Samarqand musika uslubi;
2. Xorazm musika uslubi,
3. Farg‘ona - Toshkent musiqa uslubi,
4. Surxondaryo-Qashqadaryo musiqa uslubi.

XX asrda o‘zbek va O‘rta Osiyo xalqlari musiqa merosini yozib olish va o‘rganish bo‘yicha muhim ishlar bajarildi, yuzlab nota to‘plamlari nashr etildi. Bastakor, xofiz va sozandalar o‘zbek musiqa merosi durdonalari Shashmakom, Xorazm makomlari, Faryuna-Toshkent makom yo‘llarini keng targ‘ib qilibgina qolmay, yangi cholg‘u kuy va ashulalar yaratdilar. 1930-1940-yillarda O‘zbekistonda avvallari bo‘lmagan yangi

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

opera, balet, simfonik musiqa, kamer musiqa, konsert kabi musiqa janrlari yuzaga keldi. Ular, ayniqsa, 1950-1960-yillardan boshlab O‘zbekiston kompozitorlari ijodida keng rivoj topdi, shuningdek, ommaviy Musiqaning estrada musiqasi, yoshlar musiqasi kabi yo‘nalishlari ham keng yoyildi.

Bugungi kunda musiqa ta‘limi tizimi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufida bo‘lib, uning tarkibida 311 ta bolalar musiqa maktablari, 3 ta maxsus akademik litsey, 30 ga yaqin san‘at, musiqa hamda madaniyat kollejlari, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, Toshkent davlat madaniyat instituti, Uyg‘ur nomidagi san‘at institutlari o‘z faoliyatini olib bormoqda.

Hozirda O‘zbekistonda Musiqa faoliyati asosan ijrochi jamoalar turli orkestr, xor va ansambllar, «O‘zbeknavo», Uzteleradiokompaniyasi tarkibidagi ijrochi guruxlar va yakkaxonlar hamda mustaqil ravishda ijrochilik bilan shug‘ullanayotgan ayrim xonanda va sozandalar tomonidan amalga oshirilmoqda.

2000-yilda Davlat ta‘lim standarti asosida tasdiqlangan umumta‘lim maktablari musiqa dasturi va o‘quv predmeti endilikda «Musiqa madaniyati» deb atalishi bejiz emas. Shu dasturga ko‘ra «milliy musiqa ta‘lim tarbiyaning maqsadi yosh avlodni milliy musiqa merosiga vorislik qila oladigan hamda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazish», ya‘ni o‘quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirishdir. «O‘quvchining musiqiy madaniyati» tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi: (o‘quvchining ijtimoiy-badiiy shaxsiy tajribasi – axloqiy estetik qarashlari, hissiyotlari, did va ehtiyojlari; (o‘quvchining musiqiy rivojlanganligi – musiqa san‘atiga qiziqishi, musiqaga emotsional munosabati, musiqiy kuzatuvchanligi, turli xil badiiy musiqa namunalariga bo‘lgan ehtiyoji; (o‘quvchining musiqiy bilimlari – musiqani idrok va ijro etish uchun lozim bo‘lgan tasavvur, bilim, malaka va ko‘nikmaga egaligi, san‘at va hayotga hissiy munosabati, rivojlangan musiqiy-estetik didi, musiqaga bo‘lgan tanqidiy saralash munosabati кабилар.

O‘quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirish maqsadida bir qator vazifalar belgilanadi:

- musiqiy ta‘lim-tarbiyani hayot bilan bog‘lab olib borish;
- o‘quvchilarning musiqa san‘atiga mehr, qiziqishlarini o‘stirish;
- musiqiy-badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;
- musiqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish;

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

- iqtidorli o‘quvchilarning musiqiy rivojlanishlari uchun sharoit yaratib berish va ularning badiiy ehtiyojini qondirish;

- musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy-ijodkorlik histuyg‘ularini rivojlantirish; o‘quvchilarda axloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash.

Musiqqa haqidagi bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtirish, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish, birinchi navbatda, bolalarda hissiy ta’sirchanlikni, musiqaga qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. «Tarbiyaning eng oliy ko‘rinishi – tuyg‘ular tarbiyasi» deb yozadi qozoq shoiri M.Shoxonov. Umumta’lim maktablarida musiqqa ta’limi aniq ishlab chiqilgan tizim asosida olib boriladi. Bu tizim o‘zaro bog‘langan tarbiyaviy, ta’limiy va rivojlantiruvchi vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Musiqqa darsi - maktabda musiqqa o‘qitishni tashkil etishning asosiy shaklidir. Maktabda musiqiy to‘garaklar, fakultativ mashg‘ulotlar olib boriladi, ammo dars hamma bolalarni yalpi tarzda qamrab olishi sababli o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Musiqqa darslari bir qator xususiyatlariga ko‘ra boshqa fanlardan farq qiladi:

- birinchidan – musiqqa darslari boshqa maktab fanlaridan o‘zining badiiyligi, bolalarda emotsional tuyg‘u va kechinmalar uyg‘otishi bilan ajralib turadi. Musiqqa ayniqsa, bolalarning aqliy va axloqiy rivojiga katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy histuyg‘u insonning aqliy faoliyatini o‘stiradi. Fiziologlarning aytishicha, bola aqliy rivojining kaliti uning hissiyoti sohasida turadi. Musiqqa mashg‘ulotlari bolalarning badiiy qobiliyatlarini rivojlantirib, ularda ijodiy kuch, tasavvur, fantaziyani uyg‘otadi. Qadimdan ma’lumki, badiiy ijodiy tasavvur bilan ilmiy fikrlash o‘rtasida katta bog‘liqlik bor. V.Belinskiy ayganidek: «Ilm va san’at mazmuni bir. Olim fikrlar tizimi asosida ishontiradi, ijodkor – obrazlar bilan. Ammo ikkalasi ham bir hil ishontiradi». Musiqiy asardan olingan emotsional ta’sir o‘qituvchining ifodali ijrosi, mimika, harakat, so‘z orqali yanada kuchayadi. Butun dars musiqqa bilan «sug‘orilgan» bo‘lishi lozim. Musiqqa-bolalar o‘qituvchi – darsning asosiy bo‘g‘inlaridir.

- ikkinchidan – u musiqqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan kuylash, musiqqa tinglash, musiqqa savodi, musiqqa tahlili va adabiyoti elementlaridan iborat;

- uchinchidan – musiqqa darsi o‘quvchilar tomonidan bajariladigan turli musiqiy faoliyatlarni o‘z ichiga oladi.

Boshlang‘ich sinflarda kuylash, musiqqa tinglash, musiqqa savodi, ritmik xarakterlar, bolalar cholg‘ularida ijro, ijodkorlik kabi faoliyatlar qo‘llanilsa, o‘rta

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 1. January 2024

sinflarda dars asosan to‘rta faoliyat: tinglash, kuylash va musiqa savodi va musiqa ijodkorligi asosida olib boriladi.

Hozirda amalga tadbiiq etilgan bu yangi dastur mavzuli tuzilishiga ega, ya’ni yil, chorak va dars mavzulari, musiqaning «tili», boyligi, o‘ziga xos mazmuni, musiqa san’atining boshqa san’atlar – rang tasvir, adabiyot, raqs bilan bog‘liqligini muayyan ketma-ketlik asosida yoritib beradi. Darsda o‘quvchilar o‘zbek xalq musiqasi, o‘zbek kompozitorlarining yorqin ajoyib asarlari va jahon musiqasining namunalari bilan tanishadilar. O‘zbek mumtoz musiqa merosining nodir asarlari bilan tanishish va o‘zlashtirish o‘quvchilarda musiqa madaniyatini shakllantirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Omonullayev D.F. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan leksiyalar tezislari. –T., 1990. 39. Orlova T.N., Bekina S.I. Uchite detey pet. –M.: «Prosvesheniye». 1983.
2. Петрушин В.И. Музыкальная психология. –М., 1997.
3. Петерс В.А. Педагогическая психология. –М., 2006.
4. Радынова О.П. Слушаем музыку. –М.: «Просвещение». 1990
5. Халабузарь П.Ф., Добровольская Н. Методика музыкального воспитания. –М., 1989.
6. Хо‘jayeva M.X. Musiqa idroki va uni rivojlantirish//«Xalq ta’limi». –T., 2005. № 1. 122-124 b.

Research Science and
Innovation House